

KONSEPTNING LINGVOKOGNITIV TALQINI

U.M. Elmuratova,

Koreys filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

XX-asrning 60-yillarida kognitiv tilshunoslik tilning semantik aspektiga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Bu kompleks aspekt inson tili va mental (ruhiy) faoliyatning o'zaro ta'siri, ya'ni inson tili va bilish faoliyatini o'rganuvchi fandır. Kognitiv tilshunoslikning asoschisi Amerikalik lingvist va psixolog Noam Xomskiy hisoblanadi. U bilish nazariyasiga ijodiy yondashadi va kognitsiya tushunchasini quyidagi uch asosiy masalalar bilan bog'laydi:

1. Bilishning tabiati (bilish nimani ifodalaydi)
2. Inson ongida bilimlar sistemasining shakllanishi
3. Bilimni ma'lumotlar banki shaklida kompyuterda va zamonaviy tadqiqot texnologiyalarida qo'llash.

“Konsept”- atamasi tilshunoslikda ham yangi ham eski atama hisoblanadi. Hozirda tilshunoslikda Konsept tushunchasiga juda katta e'tibor berilib kelinmoqda. 1974 yillar atrofida an'anaviy tilshunoslikda Konsept atamasi o'zgacha chuqur izohlar talab qiladigan muammo sifatida qaralardi. Konsept tushunchasidan to'la huquqli foydalanish 80-yillarda avtorlar Cheyf, R. Jakendof, G.Lakof, R.Langaskerlarning asarlarini tarjima qilinishi bilan bog'liq. Aynan o'sha matnlarda odatda Konseptualizatsiya, Konseptual mohiyat atamalari uchrab turadi. Konsept tushunchasining lug'aviy ma'nosi ustida ko'pgina avtorlar har xil fikrlarni bildirishadi. Unga mantiqiy kategoriya, amaliy falsafa tushunchasi, milliy mentalitetning asosiy birligi sifatida qaraydiganlar ham bor. Kognitiv atamalar lug'atida “Konsept” atamasiga quyidagicha ta'rif beradi: Konsept- bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarining inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir.

“Konsept” atamasi zamonaviy tilshunoslikda u yoki bu leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo'llaniladi. Kundalik ilmiy ijodda tez-tez Konsept atamasi tushuncha bilan sinonim sifatida qo'llaniladi. “Konsept”- lotincha “conceptus” so'zidan olingan bo'lib, tushuncha ma'nosini bildiradi. Konsept tushunchalar yig'indisidir. Masalan, biror predmet haqida aytilgan yoki bildirilgan har qanday fikrlar yig'indisi Konseptni tashkil etuvchilaridir.

Kognitiv tilshunoslik atamasining mazmuni koreyscha cognitive- “bilishga oid” so'zi bilan bog'liq. (Qiyoslang: cognize- bilmoq, anglamoq, tushinmoq. cognition– bilish, tushinish). Ma'lumki, dunyoni, voqe'likni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emas. Ayrim hollarda bilishni to'g'ridan-to'g'ri fahmlash, tushinish harakatlari bilan bog'lab qo'yishadi. Ammo, hayvonlarga ham qisman (oddiy shaklda bo'lsa ham) fahmlash, tushinish, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati xos ekanligi ma'lum. Shu sababli bilish faoliyati haqida gap ketganda faqatgina cogitation - lotincha aql, tafakkur hodisasini tasavvur qilish bilan cheklanmasdan, balki, cogitorium –tafakkur faoliyati shaxsini hamda

bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi nomenal (ijtimoiy, madaniy, lisoniy) xodisalarni ham inobatga olish kerak bo'ladi. Shuni unutmaslik lozimki, tafakkurning o'zi insonning maqsadli faoliyati natijasida hosil bo'lib, u insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida voqe'likka nisbatan bildirilayotgan faol munosabatning ifoda topishidir.

Konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi. Taniqli faylasuf va psixolog J.Fodor voqe'likning ongda in'ikos etishi va bu in'ikosning tafakkurda qayta ishlanishi jarayonini o'rganayotib, bu jarayonni tafakkur lisoniga o'xshatadi. Chunki "har qanday mantiqiy tasavvur harakati ma'lum ko'rinishdagi strukturaga ega bo'ladi, hamda bu struktura tabiiy til birligining sintaktik shakli takroriga ishoradir".¹

Konsept – mental tuzilma bo'lib, u turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir.² Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi, ular uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Odatda, konseptning umumiy xususiyatlari sifatida uning ichki tuzilishi jihatidan aniq tuzilishga ega emasligi qayd qilinadi. Biroq bu qayd unchalik haqiqatga ega emas. Zero, kontsertning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o'rinni egallagan bo'laklari mavhumlikka ega bo'lishi bilan birgalikda, ular yagona negiz (yadroviy asos) atrofida o'zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli, konsept tarkibining tizimiy xususiyatlari tuzulish jihatdan murakkab tartibli bo'lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida nomoyon bo'ladi. Amerikalik kognitivistlar konseptual semantikaning keyingi rivojida tilshunoslikdagi umumnazariy qarashlarga yangicha yondashishni taklif qildilar va bu qarashlar ma'noni chuqurroq anglashga imkon beradi.

Agar ma'no "Konsept" shaklida tushuntirilsa, aynan, Langaker ham bu qarashlarga qo'shilgan holda, shuni ta'kidlaydiki, "Konsept" inson tafakkuridagi bilimlar bilan bir xil joylashgan bo'lishi mumkin.

Konsept so'zi aslida lotincha conceptus bo'lib, "tushuncha" ma'nosini ifodalaydi. Hozir ham ko'pincha "Konsept" terminidan "tushuncha" so'zining sinonimi sifatida foydalanilmoqda. Shuningdek, konsept termini matematik logika, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlarda ham faol qo'llanilmoqda.

YE.S.Kubryakova ta'kidlaganidek, "Konsept" termini tafakkur, anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokul'turologiya fanlari uchun "soyabon" vazifasini o'taydi. Til inson ongida Konseptni ifodalovchi va shakllantiruvchi vositalardan biridir. Konsept inson aqliy dunyosidagi madaniyatning asosiy yacheykasidir. Konseptlar inson ongida nafaqat so'zning lug'aviy ma'nolari asosida, balki shaxsiy hamda butun bir xalqning madaniy-tarixiy tajribasidan kelib chiqib paydo bo'ladi. Tajriba qancha boy bo'lsa, Konseptning chegarasi shunchalik keng bo'ladi. Aynan shunday holatda Konsept o'zini har tomonlama namoyon eta oladi. Zotan, Konsept dunyoni bilish va u haqda o'z

¹ Fodor J. The Language of Thought. - Sussex, 1975, 110-бет

² Кубрякова Е.С., Панкрац Ю.Г. Падежная грамматика. В кн. Современные зарубежные грамматические теории. М.: ИНИОН. 1985. –90-бет

tasavvuriga ega bo'lish demakdir. Intensivlikning Konseptualizatsiyalashuvi til jarayoni bo'lib, unda til birliklari ma'no jihatdan qayta ishlanadi. Intensifikator ham so'zga nisbatan qo'llanadi, natijada o'sha so'zning konseptiga aloqador bo'ladi.

Konseptlar xalqning ongida jamoa merosi sifatida, uning ma'naviy mulki, madaniyati sifatida namoyon bo'ladi. Aynan jamoa ongi (fikri) konseptning yashovchanligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri sanaladi. Oddiy tushuncha va konsept o'zining farqli hamda o'xshash tomonlariga ega. Tushuncha moddiy borliqdagi narsa-hodisalarning eng muhim belgilarini ifodalasa, konsept ularning yuzaki (o'ta muhim bo'lmagan) tomonlarini ham ifodalay oladi. Tushuncha so'z orqali ifodalanadi. Lekin tushuncha va so'z aynan bir narsa emas. Tushuncha biror bir sinfga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish va bu predmetning umumiy va farqlovchi belgilari majmuasi asosida shakllanadi. Bir umumiy tushuncha turli tillarda turli so'zlar orqali ifodalanadi. Masalan, koreys tilida – water, nemis tilida wasser, o'zbek tilida suv, rus tilida voda kabi. Ushbu misollar so'z ma'nosi va tushunchaning bir-biri bilan zich aloqada ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli turli millatlar tillaridagi so'zlar o'z ma'nosiga ko'ra bir-biriga qisman yoki aynan mos kelishi mumkin. Shuningdek, so'z tushunchaning ifodalovchisi hisoblanadi va shu asosda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish imkoniyati tug'iladi. Ba'zi olimlar tushuncha va so'z ma'nosining bir-biriga mos kelishini ta'kidlaydilar hamda shu asosda tushuncha va so'z ma'nosini mohiyatan bir narsa deb qaraydila. Bu masala munozaraligicha qolmoqda. Tushuncha va so'z ma'nosining birligi nimada ko'rinadi, degan savol tug'ilishi mumkin. Har ikkalasi ham bir xil predmet yoki hodisani ifodalaydi, umumlashtiradi. Bu tarzda ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Tushuncha so'z va uning ma'nosisiz mavjud bo'lmaydi va, aksincha, so'z tushunchaning, fikrning ifodalovchisi hisoblanadi. So'z ma'nosi til kategoriyasi, tushuncha esa tafakkur kategoriyasi bo'lishi sababli ular bir-biridan farq qiladi.

Ma'lumki, tafakkur qonunlari ob'ektiv olam bilan bog'liq. Tushuncha mazmuni millatga bog'liq emas, u umuminsoniy xarakterga ega. Shuning uchun ham turli millat vakillari bir-birlarini oson tushunadi, fikr almasha oladi. So'z esa milliy xarakterga ega bo'lib, mazkur xalq tilining o'ziga hos qonun-qoidalari asosida shakllanadi. Shu bois ham bir so'zning ma'nosi boshqa tildagi so'z ma'nosi bilan har doim ham mos kelavermaydi. B. Ismoilov o'z tadqiqotida rus tilidagi "stol" tushunchasi ingliz va rus kishisi uchun bir xil bo'lsa-da, uni leksik ma'nosiga ko'ra ingliz tilidagi "table" so'zi bilan bir xil ma'noda qo'llab bo'lmasligini to'g'ri ta'kidlaydi. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra konsept va tushuncha bir-biriga umuman yaqin, lekin konsept tushunchaga nisbatan keng ko'lamga ega. Masalan "stol" so'zining ma'nosini tushuntirishda biz "to'rt oyoqli, ust qismi silliq, yozish yoki ovqatlanish uchun foydalaniladigan mebel turi" deb izohlaymiz. Tushunchada stolning eng muhim tomonlari aks etadi, xolos. Konsept lingvistik kategoriya sifatida tushuncha kategoriyasini til tizimida namoyon etuvchisidir. Akademik I.I. Meshchaninov tushuncha kategoriyasiga oydinlik kiritadi. Uning fikricha, tilda ifodalanayotgan har qanday narsani tushuncha kategoriyasi deb bo'lmaydi. Tushuncha kategoriyalari tilning turli sathlarida, turli vositalar orqali ifodalanish imkoniyatiga ega bo'lgan tushunchalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Fodor J. The Language of Thought. - Sussex, 1975, 110-бет
2. Кубрякова Е.С., Панкрац Ю.Г. Падежная грамматика. В кн. Современные зарубежные грамматические теории. М.: ИНИОН. 1985. –90-бет
3. В кн. Современные зарубежные грамматические теории. М.: ИНИОН. 1985. – 90-бет
4. Eshimova, S. K. (2022). Koreys badiiy adabiyotida personifikatsiyaning ifodalanishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 356-364.
5. Байматова, М. (2022). Проблема перевода и адаптации непереводаемой терминологии (на примере английского и корейского языков). Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 190-192
6. Базарова, Ш. Ш. (2022). Koreys adibasi shin kyon suk ijodining o'ziga xosligi xususida. *Международный журнал искусство слова*, 5(3).
7. Назарова, Ш. (2017). О масштабе реализации феномена транспозиции. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 2(3 (64)), 83-87.
8. Usmonqulovna, B. D., & Aziz To'liqin o'g, A. (2023). O'zbek va koreys tillarida adyektivatsiya hodisasi. *Journal of new century innovations*, 24(1), 46-49.
9. Bayanxanova, I. F., & Soliyeva, A. (2022). O'zbek va koreys tillarida kelishik kategoriyasi haqida umumiy tushuncha. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 114-121.
10. Kamarova, M. (2022). 우즈베크어와 한국어 파생법 관련 논문 사례 연구 Case studies of uzbek and korean derivation papers. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 258-263.